

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA O‘ZBEK AYOLI VA MILLIY RUH UYG‘UNLIGI

Boboqulova Uljon Suvonovna

filologiya fanlari bo‘yicha

falsafa fanlari doktori (PhD)

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

e-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

Annotatsiya

Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyot umuminsoniylik xarakterida bo‘lsa-da, tag zamirida muayyan xalqning ruhini ifodalashi, poetik mazmun, poetik shakl va poetik obraz ana shu maqsadga xizmat qilishi lozim. Bu borada atoqli shoir Abdulla Oripov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ilk she‘rlaridanoq bo‘rtib ko‘ringan va keyingi ijodiy takomilida qudratli bir qanot bo‘lib xizmat qilgan milliylik, millatga xos bo‘lgan tuyg‘ularni o‘zida mujassamlashtira olgan xalqning ruhidir. Ushbu maqolada shoir she‘rlarida singil, momo va kampir obrazlarida milliy ruh ifodasi xususida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy ruh, millat, singil, momo va kampir, urf-odat, xalqona pafos, shoir uslubi.

Abstract

In world literary studies, while fiction has a universal character, it should fundamentally express the spirit of a specific people, with poetic content, form, and imagery serving this purpose. In this regard, the work of the renowned poet Abdulla Oripov is of particular significance. The national spirit, which embodies the feelings inherent to the nation, was prominent in his early poems and served as a powerful driving force in his subsequent creative development. This spirit represents the essence of the people, encapsulating the emotions characteristic of the nation. This article examines the expression of the national spirit through the images of sisters, grandmothers, and elderly women in the poet’s verses.

Key words: national spirit, nation, sister, grandmother and elderly woman, traditions, folk pathos, poet’s style.

Adabiyot millatning o'zligini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Zero, "Yozuvchi asar yaratarkan, uni milliylikdan holi tasvirlay olmaydi. Milliylik adabiyotning asosiy ozig'i hisoblanadi. Chunki har bir xalqning adabiyoti o'sha millat ko'zgusida akslanadi. Milliy ifoda, milliy ruhga e'tibor masalasi badiiy asarga millat etiketini taqdim etadi. Bu esa o'z navbatida o'sha xalqning adabiyotini dunyoga yuz tutishida muhim belgi bo'lib ham sanaladi". [Isabayeva G, 2025: 103]. Ulug' faylasuf Gegelning ta'kidlashicha, Homer asarlari bo'yicha yunon xalqi ruhini o'rganish mumkin ekan, ayni fikr Abdulla Oripov ijodiga ham taalluqlidek.

Shoir she'riyatida milliy ruh turfa xarakterlar, detallar, voqea-hodisalar tarzida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ayol obrazi bu kabi katta yuklamalarni yelkasiga ortmoqlab ko'chib yuruvchi xarakter sanaladi. Shoir ijodida ham shunday vazifani bajaruvchi vosita o'zbek ayoli obrazidir.

Abdulla Oripov she'riyati tom ma'noda milliy an'analar, qadriyatlar, azaliy urf-odatlar va xalqona poetik tafakkur bilan sug'orilgan lirik kechinmaning badiiy tasviridir. "Ulug' shoir uchun yuqori darajada milliy bo'lishdan boshqa katta sharaf yo'q, chunki bu usiz ulug' bo'la olmaydi" [Belinskiy, 1977: 32]. Bizningcha ham Abdulla Oripovning ulug'ligi milliy she'riyatga milliy ruhni qayta jonlantira olganidadir. Shu ma'noda shoir ijodini sinchiklab o'rganish nihoyatda keng va chuqur umumlashmalar qilish imkonini beradi. Tadqiqotimiz davomida shunday xulosaga keldikki, faqat shu millat, shu xalq ruhoniyyatiga mansub bo'lgan xususiyatlar ba'zan bevosita, ba'zan bilvosita badiiy obrazlar siymosida qayta jonlanishi yangidan yuz ko'rsatishi mumkin. Shoirning asosiy mavzularidan biri ayol siymosida milliy ruhning yangi qirralarda zohir bo'lishini ikki obraz misolida tahlil qilishni joiz topdik: 1) singil va uning o'gir kechmishi tasviri; 2) momo va kampir obrazlarida xalqona ruh ifodasi.

Singil va uning o'gir kechmishi tasviri. Shoirning "Seni ona dedim" va "Yuzma-yuz" she'rlarida singil obrazining dardli qiyofasi o'zgacha manzaralarda tasvirlanadi. Shoir she'rlarida singil onaning ichki qiyofadoshi sifatida aks etishi boshqa ijodkorlar ijodida uchramaydigan hodisa. Ona siymosiga xos munis va jafokash epitet-sifatlashlar singilda

ham mujassam. Shoir “Seni ona dedim” she’rida ayolni ona, singil, yor timsollarida tasvirlar ekan, singil “dardman” xalqning tipik timsolida namoyon bo‘ladi:

Seni singlim dedim,

Qarshimda shu on

Munis va jafokash chehrang ko‘rindi.

Sambitday vujuding tonglarda giryon,

Muzqotgan dalalar ichra urindi [Opunov A, 2001: 28].

“She’r ko‘pincha dard ifodasidir. U kamdan kam hollarda quvonchdan tug‘iladi. She’r qayg‘uning o‘z, quvonchning o‘gay bolasidir” [Йўлдошев Қ. 2018: 247]. Darhaqiqat, mazkur she’rda ifodalangan mohiyat ham Abdulla Oripovni ruhiy qiynoqqa solgan dard edi. Shoir ayolni o‘ylaganda qarshisida “muzqotgan dalalarda sambitday vujudi uringan” singilning “munis va jafokash chehrasi”ni ko‘radi. “Ushbu misralarni o‘qiganda beixtiyor 60-yillarda xalqimiz qismati haqida bu darajada kuyinib yozolgan va eng muhimi, yozganlarini e‘lon qilolgan shoir topilmasa kerak, degan o‘y keladi” [Каримов О, 2012: 62]. Misralarda keltirilgan so‘zlarning asl mohiyati va ayni kontekstdagi harakatiga va anglatgan ma’nosiga chuqur nazar tashlasak, mohiyatni yanada ochiqlash imkonimiz bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “urinmoq” so‘zining bir qancha ma’nolari berilgan. Shundan holdan toymoq, charchamoq, qiynalmoq kabi ma’nolari shoir uchun asos vazifasini o‘tagan. Ayni shu ma’nolardan o‘sib chiqqan “asl holatini, sifatini yo‘qotmoq, eskirmoq” kabi ko‘chma ma’nosi shoirning so‘zni badiiy idrok qilish va obrazlashtirish mahorati natijasida yangi bir fikr, yangi bir obrazning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan. “Urinmoq” so‘zining “asl holatini, sifatini yo‘qotmoq, eskirmoq” kabi ko‘chma (narsalarga xos) va “holdan toymoq, charchamoq, qiynalmoq” (jonli mavjudotga xos) kabi o‘z ma’nolarini umumlashtirgan holda singil vujudiga ko‘chirish yangi bir poetik hodisa bo‘lib, sambitday (qaddi qomati tik, kelishgan) so‘zi bilan birga qo‘llanganda so‘zning ma’no quvvati yanada kuchayganligi ko‘zga tashlanadi. Urindi fe’lining sambitday sifati bilan tashbehga olinishi “qomat shaklining o‘zgarishi, egilishi, bukilishi” ma’nosida, bu holatning muzqotgan (noyabr, dekabr oylari nazarda tutilgan) dalalardagi og‘ir mehnat natijasida yuz berishi dardchil kayfiyatni yuzaga

keltiradi. Ana shu dardli, qaygʻuli kayfiyat singil qiyofasida xalqning achinarli ahvoli, ruhiyatining badiiy koʻrinishi sifatida oʻz aksini topadi.

Qomati sambitday uringan singil – xalq obrazi dastlab “Yuzma-yuz” sheʼrida “rangpar singil” koʻrinishida ifodalangan edi. Shoʻro mustabid tuzumida oʻzbek millati eng fojiali asrni boshidan kechirdi. Mavjud tuzum xalqning nafaqat moddiy, balki maʼnaviy olami va hayot tarziga ham tajovuz qildi. Ana shunday sharoitda ham millatning ruhini, badiiy tafakkurini oʻzida saqlab qola olgani milliy adabiyotimizning katta yutugʻidir. Maʼfuraviy zugʻumlar ostida ham milliy qiyofani, oʻziga xoslikni, milliy gʻurur va islomiy falsafiy mushohadani saqlab qola olgan ayrim ijodkorlar qatorida Abdulla Oripovning ham oʻziga xos oʻrni bor. Uning sheʼrlarida inson shaʼni, qadr-qimmatini baland pardalarda oʻz ifodasini topdi. “Insonga hamdardona munosabat, uni faqat mehnati uchun emas, balki inson boʻlgani uchun ham qadrlash, diliga kirib borish, baʼzan aka, baʼzan mehribon ogʻil, baʼzan donishmand ota qiyofasida dardlashish istagi, badiiy tafakkurning favqulodda milliyliги va xalqonaligi, sharqona falsafiy mushohada yuritish qobiliyati bilan Abdulla Oripov chinakam millat ruhini milliy ruhda ifodalay oldi” [Эрназарова Г, 2001: 16]. Darhaqiqat, “Yuzma-yuz” sheʼrida shoir rangpar singilning – dardkash akasi timsolida mavjud tuzum bilan yuzma-yuz gaplashib oladi. Singilning rangpar boʻlmasligini orzu qiladi. Biroq sheʼrda koʻtarilgan muammolar: singil qiyofasidagi dardman va maʼyus millat, singilday qadrdon va aziz millat tafakkurimizda butunlay qaygʻuli kayfiyat izini qoldirib ketadi.

Tahlilimizni bevosita dastlabki sheʼrning keyingi bandlariga qaratamiz. Misralarda xalqning nochor ahvoli bir dona boshqoq misolida ochib beriladi. Mazkur sheʼr “Yuzma-yuz”dan (1964) 21 yil keyin, yaʼni 1985-yilda yaratilganligiga qaramasdan singilning holati hali hamon rangpar. Bir dona boshqoq topsa yuziga rang yuguradigan singil holi butun millat turmushining tipik koʻrinishidir. “Rangpar singil” – kunduzi paxta dalasidan, kechasi roʻzgʻor tashvishidan qaddi dol, kasalmand, farzand tarbiyasi bilan shugʻullanishga ham vaqt topa olmaydigan oʻzbek ayoli timsoli” [Жабборов Н., 2014: 5]. Boshqoq (nasiba)ning oʻtkir qipigʻi ninaga qiyos qilinib, palak tikadigan barmoqlariga sanchilish epizodi oʻquvchida gʻoyatda ayanchli iztirobni yuzaga keltiradi:

Nasibang ninaday sanchildi u choq,

Palak tikadigan barmoqlaringga.

O‘zi tikkanini o‘zi kiymagan, o‘zi ekkanini o‘zi yemagan, nasibasi o‘ziga xanjar, mehnatiga yarasha e‘tibor ololmagan xalqning ahvoli hali birov aytmagan, birov yozmagan ifodalarda voqelanadi. O‘tmishning og‘riqli kunlari tariximizda go‘yoki “tosh qotgan marjon” kabi xalq ruhiyatida akslanib turadi. Shoir singilga yuzlanar ekan, ayni davrda avj olayotgan siyosatning oqibatlaridan xavotirga tushadi. O‘sha mash‘um kunlar qaytmasligiga umid qiladi. O‘zbek ayoliga – singilga “singiljon” deya hadik va achinish bilan nazar soladi:

Qora saharlarning mash‘um faryodi,

Takror bo‘lmasa bas endi, singiljon [Орипов А, 2001: 68].

Afsuski, shoirdagi qalb sezgilari shuni ko‘rsatdiki, shoir kutgan emas, qo‘rqan “sambitday vujudning erta tongdan muzqotgan dalalarda uringan” va o‘sha “qora saharlarning mash‘um faryodi” “paxta ishi – o‘zbek ishi” shaklida xalqning- millatning boshiga sonsiz balolarni olib keldi. Shu o‘rinda mashhur olmon faylasufi G.Gegelning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz topdik. Gegel xalqni “Hosildor zamin” deb atab: “Shunday zamin borligi uchun ham yorqin individlar yuzaga chiqadi”, – deya izoh beradi [Гегель Г.В.Ф, 1958: 673]. Shu ma’noda har bir betakror iste’dod o‘zi mansub bo‘lgan xalqning ma’naviy mulki hisoblanadi. Uning millat orzu-istaklarini, dard-alamlarini, sururli onlarini badiiy shaklda bayon etib turishi ham shundandir.

Momo va kampir obrazlarida xalqona ruh ifodasi. Shoir Abdulla Oripov ijodida ham shunday arxip obrazlar borki, ular nafaqat millat balki turkiy xalqlar ma’naviy qiyofasining bir qismi sifatida qimmatlidir. Ana shunday arxitiplardan momo va kampir obrazlaridir. Momo obrazining genezisi Qur’oni karim va Odam Ato va Momo Havvoning yaratilishi bilan bog‘liq diniy-mifologik adabiyotlarga borib taqaladi. Bu obraz mifologiyada turli talqinlarda uchraydi. Xususan, shoir Abdulla Oripovning Odam Ato va Momo Havvoning jannatdan quvilishidan keyingi voqealar aks etgan mifologik xarakterdagi “Odam va shayton qissasi” she’rida butun insoniyatga daxldor bo‘lgan ilk Momo obrazi aks ettirilgan. Momo xarakteridagi ko‘ngilchanlik, itoatgo‘ylik, mehr (hatto

shayton bolasiga ham) kabi tuygʻular milliy ruhoniyatning dastlabki koʻrinishi sifatida akslanadi.

Shoir sheʼriyatida momo kultining oʻzi avlodlar oʻrtasida adabiy meros anʼanalarini ogʻzaki tarzda tashuvchi vosita vazifasini oʻtaydi. Shoirning “Momo” nomli bir sheʼrida yuqorida keltirilgan funksiyaning badiiy tajassumini koʻrishimiz mumkin:

Men koʻrgani keldim atayin,
Hozir sensan eng qadimgi jon.
Nabirangdek tinglab yotayin,
Afsonalar aytgin, momojon [Орипов А, 2019: 071].

Yoxud
Bola oʻqib qaytdi xorijda bir kun,
Kasbi kor orttirdi diplomli meʼmor.
Uyda bayram boʻldi momosi uchun:

–Bolam, tandir qurgin, oʻtirma bekor [Орипов А, 2021: 407].

Koʻrinadiki, shoir sheʼrlarida momo obrazi milliy qadriyatlar ramzi sifatida badiiy qimmat kasb etadi. Momo obrazi bilan birga kampir obrazi ham shoir sheʼrlarida salmoqli oʻrin tutadi va kengroq maʼno ottenkalarini oʻzida mujassam etadi. Shoirning boshqa bir sheʼrida esa kampir obrazi sabr bardosh timsoli sifatida gavdalanadi. “Toqat” sheʼrida har narsaga tajang boʻlaveradigan cholini yupatish bilan ovora kampir obrazi tasvirlangan boʻlib, milliy mentalitetimizga xos boʻlgan goʻzal fazilat ulugʻlanadi:

Toqatim toq boʻldi, deydi endi chol,
Toqat yurakdami? Toqat koʻzdami?
Kampiri yer chizib shivirlar behol:
Chidang-da, toqat ham faqat bizdami?! [Орипов А, 2001: 88]

“Abdulla Oripov poetik tiplarni shoirona tavsiflar vositasida gavdalandiradi. Tiplarning xarakterli belgilarini ular namoyon boʻladigan hayotiy situatsiyalarda nihoyatda ixcham tasvirlaydi” [Фофуров И. 1984: 27]. Darhaqiqat, shoirning kampir obrazi aks etgan barcha sheʼrlarida bu holatni koʻramiz. Jumladan, “Oila” deb nomlangan kichik voqe

she’rda ham kampir obrazi orqali o‘zbek oilasining go‘zal an’anasi yaratilgan. She’rda ko‘chaga turfa yumush bilan chiqib ketgan farzandlarining hol ahvolidan xavotir olgan chol-u kampir kun bo‘yi bir-biriga beg‘araz tanbeh berib, kech tushganda dasturxon boshida oila jamuljam bo‘lganda esa kampir va cholning shukronalik holati xalqona usulda tasvirlanadi. Asar ibtidosida kampir obrazi eng chiroyli insoniy fazilatlardan biri – shukr timsoli sifatida namoyon bo‘lishi she’rning estetik maqsadini yuzaga keltiradi: Kampir: — Shukr, – deydi qimtinib labi,

Chol ham jilmayadi: Tushunar...

Dunyoda hech bir gap bo‘lmagan kabi

Bolalar ovqatni tushirar [Oripov A, 2021: 259].

Oripovning sharq rivoyatlari uslubida yozilgan “Hangoma” voqe she’ri borki, obraz va detallar to‘laligicha xalqona uslubda tasvirlangan. Qo‘shni qishloqqa to‘yga otlangan ikki chol birovni eshak, birovni otga minib yo‘lga chiqishadi: “Yo‘lni eshak boshladi, Ot ergashdi lo‘killab”. “Eshak minganning oyog‘i tinmas” deganlaridek, oppoq qorli “qora sovuq”da eshakka ishonib adashib qolgan ikki chol endi ixtiyorni otga qoldirishadi: “Surgaladi ot horg‘in, Orqada eshak besas”. Qorong‘i tushganda qaysidir qishloqqa yetib kelgan ikki chol bir uyning oldida to‘xtab, darvozani taqillatishadi va joy so‘raydi: “Bir kechaga bizlarga, Joy bersangiz, yangajon”. Asarning komik kulminatsiyasi ayni shu vaqtda yuz beradi. Fonusini yaqinroq tutgan kampir:

Hoy, senmi bu, yer yutkur,

Imoningdan kechdingmi?

Aljiraysan yo to‘yda

Aroq-paroq ichdingmi? [Opunov, 2000: 17].

Bilsaki, ot cholni o‘z uyiga olib kelgan, chol esa kampiridan joy so‘rab turgan ekan. Mana shu joyda kampir tilidan aytilgan xalqona ibora va qarg‘ish beg‘araz koyish bo‘lib, o‘zbek mentalitetiga xos qirralardan biri bo‘lganligi uchun kampirning o‘z choliga qilgan muomalasi yomon kayfiyat uyg‘otmaydi. Kampir “yer yutgur”, “aljiraysan”, “aroq-paroq” kabi salbiy ma’no ifodalovchi so‘zlarni “iymondan kechmoq” birikmasiga qarshi qo‘yadi. Iymondan kechganlikda ayblash hazilakam gap emas. She’rda latifanamo mazmun bir

qancha ko‘chma ma’nolarni ifodalasa-da, Abdulla Oripov kampir obrazida sharqona donishmandlik va milliy ruhni badiiy voqelantira olgan.

Xalqona ruh bilan sug‘orilgan “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” esa o‘zgacha badiiy mazmunda. Asar boshida uncha ko‘zga tashlanmagan farrosh kampir badiiy ta’sir sahnasiga kirib kelishi bilan manzara tamoman o‘zgarib ketadi. Farrosh kampir asarda ko‘tarilgan ma’naviy-axloqiy muammolar markaziga qo‘yiladi. Milliy xarakter orqali umumbashariy, chegara bilmas muammolar yechimi yoritiladi.

O‘zining ma’no-mohiyati va ifoda ko‘lamiga ko‘ra shoir she’rlarida momo va kampir obrazlari faqat ijobiy xarakterda bo‘lib, xalqimizning o‘tmishi va buguni aks etib turgan timsol sifatida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данияров Б. Х. Принципы и приёмы оригинальной методики обучения русскому языку взрослых //Преподавание языка и литературы. – 2021. – №. 7. – С. 70-73.
2. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нуткий муносабати, лексикографик тадқиқи //Монография. Тошкент:“Сано стандарт. – 2019. – С. 171.
3. Данияров Б. Х. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: Коннотативный аспект семантики номинативных единиц //Москва: Институт языкознания РАН. – 1994. – С. 80.
4. Данияров, Б. Х. "Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография." *Ташкент: Издательство Bookmany print* (2022).
5. Ikromjon Habibjonov, Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq masalalari, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 2, Issue 4 / December, 2021. ISSN: 2181-063X.
6. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Namanganda tug‘ilmagan namanganlik (Sunnatulla Anorboyev tavalludining 100 yilligiga), “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 4 / December, 2022. ISSN: 2181-063X.

7. Ikromjon Toshpo‘lat o‘g‘li Habibjonov, Sovet ittifoqining soliq-bojxona tizimiga bo‘lgan munosabati, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 3, Issue 3 / September, 2022. ISSN: 2181-063X.
8. Xanifa Jurayeva, I.Habibjonov, Andersen asarlarida tarbiya motivi, “World of Philology” Scientific Journal / Volume 2, Issue 1 / March 2023. ISSN 2181-3630.
9. Икромжон Тошпўлат ўғли Ҳабибжонов, Солиқ-божхона терминологиясида дублетлик ва уни тартибга солиш масалалари, «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 6.
10. Nasriyeva D. Tilshunoslikda diskurs va matn talqini //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.3. – С. 307-309.
11. Nasriyeva Dilnoza, National-mental factors in the artistic discourse of isajon sultan (on the example of the novel “geneticist”), European journal of literature and linguistics, 2023. – P. 53-56.
12. Dilnoza Nasriyeva, Isajon Sulton badiiy diskursining milliy-mental xususiyatlari, Filologiya masalalari–yosh tadqiqotchilar nigohida, Vol. 1 No. 1 (2023).
13. Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva, Isajon Sulton asarlarida pretsedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida, FarDU ilmiy xabarlar, 25.08.2022.
14. Ubayevna R.H. Features of interaction between preschool children //Shokh library. – 2025.
15. X.U.Rizayeva, Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, №8.
16. Rizaeva Xusniya Ubayevna, Batareykalar va ularning bola hayotidagi salbiy ta’siri, Лучшие интеллектуальные исследования, 2023/10/20, – В. 83-88.
17. Rizayeva Husnia Ubayevna, Features of interaction between preschool children, International Multidisciplinary Journal for Research & Development, Vol. 12 No. 01 (2025).
18. Urazbaevna N. R. Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 4. – С. 174-175.

19. Nurjanova R. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida maxsus kompetensiyalarni shakllantirish //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 9. – C. 449-452.
20. Urazbaevna N. R. Methodology of forming self-assessment skills in educators of school educational organizations //Confrencea. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 375-378.
20. Urazbaevna, Nurzhanova R. "Development of Creative Abilities of Future Preschool Teachers." *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, vol. 4, no. 4, 26 Apr. 2023, pp. 174-175.
21. Uljon Boboqulova, The artistic interpretation of historical female images in abdulla oripov’s poetry, Navigating challenges and opportunities in a changing world, 2025-07-25.
22. Uljon Boboqulova, Reflection of the lyrical hero’s personality in Abdulla Oripov’s poems on the theme of mother, American Journal Of Philological Sciences (ISSN – 2771-2273), 2025/5/16.
23. Uljon Boboqulova, Ona obrazida lirik fojellikning aks etishi, Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2025/5/4.
24. Uljon Boboqulova, Qizlar madhi. Ikki shoir talqinida, Til va adabiyot.uz, 2025/3.